



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING
BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI O'RNI VA DOLZARBLIGI.**

Eshov Alibek Sobirovich

Professor: Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

e-mail: eshevalibek@gmail.com

Xolmurodova Adelinabonu Bahodir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti.

e-mail: bozarovaadlina@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlarning boshlang'ich ta'limdagi o'рни va ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim yosh bolalar uchun bilim olish jarayonining asosiy bosqichi bo'lib, bu bosqichda zamonaviy yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), o'yin va muammoli ta'lim texnologiyalari kabi zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishdagi dolzarbligi ko'rib chiqilgan. O'qituvchilarning ushbu yondashuvlarni amaliyotga joriy etishdagi tajribalari va bu jarayondagi muammolar ham tahlil qilingan.

Абстрактный. В данной статье описывается роль и значение современных педагогических подходов в начальном образовании. Начальное образование является основным этапом процесса обучения детей раннего возраста, и на этом этапе современные подходы играют важную роль в повышении эффективности образования. В статье анализируются преимущества современных подходов, таких как личностно-ориентированное образование, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), игровые и проблемные технологии обучения. Также рассмотрена актуальность данных подходов в развитии способностей детей и повышении качества образования. Также анализируется опыт учителей по реализации этих подходов и проблемы в этом процессе.

Abstract. This article discusses the role and importance of modern pedagogical approaches in primary education. Primary education is the main stage of the learning process for young children, and modern approaches at this stage play an important role in increasing the effectiveness of education. The article analyzes the advantages of modern approaches such as person-centered learning, interactive methods, information and communication technologies (ICT), game and problem-based learning technologies. It also examines the relevance of these approaches in developing children's abilities and





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

improving the quality of education. Teachers' experiences in implementing these approaches in practice and the problems in this process are also analyzed.

Kalit soʻzlar. *Zamonaviy pedagogika, boshlangʻich taʼlim, taʼlim sifati, pedagogik uslublar, raqamli taʼlim, taʼlimda barqaror rivojlanish, bolalar psixologiyasi, pedagogik innovatsilar.*

Ключевые слова. *Современная педагогика, начальное образование, качество образования, педагогические методы, цифровое образование, устойчивое развитие образования, детская психология, педагогические инновации.*

Keywords: *Modern pedagogy, primary education, quality of education, pedagogical methods, digital education, sustainable development in education, child psychology, pedagogical innovations.*

Kirish.

Taʼlim jarayoni uzluksiz boʻlib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bogʻliqdir. Ushbu maqolada biz asosan umumiy oʻrta taʼlimning ilk boʻgʻini hisoblangan boshlangʻich taʼlim haqidagi fikrlarga alohida eʼtibor qaratamiz. Haqiqatan ham, taʼlimga zamonaviy yondashuvlar taʼlim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qoʻyilgan oʻquv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda oʻquv yuklamasi va darslar sonini qayta koʻrib chiqish, oʻquvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini taʼkidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika boʻyicha dunyoda eng ilgʻorlardan biri. Taʼlimni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, taʼlim olishning asosiy vositasi boʻlgan darsliklarni yangilamay turib, oʻquvchi va oʻqituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib boʻlmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning: “Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar boʻldi. Finlandiya standarti bilan 1- 4 -sinflar uchun darsliklar qiladigan boʻldik. Finlandiya xalq taʼlimi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi”, degan fikrlari bu sohaga yuksak iqtidorga ega soha vakillarini jalb qilishni anglatadi. Barcha maktablarda “Milliy oʻquv dasturi”ni toʻlaonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi. Boshlangʻich maktab oʻquvchining umumiy taʼlim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. Toʻrt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini oʻzlashtirishi, balki qanday oʻrganishni – “professional talaba” boʻlishni ham oʻrganishi kerak. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisining masʼuliyati doimo eksklyuziv boʻlgan. Boshlangʻich maktabda olingan taʼlim keyingi taʼlim uchun asos, poydevor boʻlib xizmat qiladi. Boshlangʻich taʼlim boshlangʻich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yoʻnaltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchun moʻljallangan: oʻquvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, oʻqishga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash. Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, har bir rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'limida alohida ustivorlikka ega jihatlar mavjud. Jumladan, Xitoyda 6 yoshga to'lgan bolalar boshlang'ich maktab yoki o'rta maktabga kiradilar va u yerda 6 yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabda bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar jismoniy tarbiya darslariga ko'p vaqt ajratadilar, cholg'u asboblarni chalishni o'rganadilar, ingliz va rus tillaridagi bilimlarini oshiradilar. Darslar 7:00 da boshlanadi. Har kuni ertalab barcha o'quvchilar o'qituvchilar bilan birgalikda jismoniy mashqlar qiladilar. Keyin soat 8.00 dan 12.00 gacha tabiiy va matematika fanlari o'rganiladi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik tanaffusi mavjud bo'lib, unda bolalar maktabda uxlashlari mumkin, tushdan keyin esa gumanitar fanlar bo'yicha yana uchta dars o'tkaziladi. Keyin bolalar uy vazifalarini bajaradilar va faqat soat 16.00 da uyga qaytishlari mumkin. Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimida ekologiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 2005-yilda joriy qilina boshlagan boshlang'ich maktab o'quv dasturida u yoki bu tarzda ekologik muammolarga ta'sir etuvchi mavzular "Hayot xavfsizligi (atrof-muhit)", "Tabiiy fanlar va texnologiya" fanlari materiallariga kiritilgan. Ta'lim muassasasi qoidalariga ko'ra, ushbu fanlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: o'z-o'zini bilish, tabiat va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunish qobiliyati, hayot sifatini yaxshilash yo'llarini topish, tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanishni o'rganish. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi yaratilgan "Milliy o'quv dasturi" asosida chiqarilgan darslikda o'quvchilarning og'zaki bilim ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Biz bugungi taraqqiyot jadal rivojlanib borayotgan davrda yashar ekanmiz, har bir sohaning yanada shakllanib, jamiyatning rivojlanishi yo'lida munosib o'rin tutishi uchun ko'plab istiqbolli islohatlar o'tazilayotganini guvohi bo'lib kelmoqdamiz. Ana shunday sohalardan biri, porloq kelajak bunyod etish yo'lida asosiy poydevor bo'lgan –ta'lim sohasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan tabrik nutqlarida ta'kidlab o'tganlaridek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir" Shu boisdan bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida qator islohatlar, o'zgartirishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ulardan ko'pi oradan ko'p vaqt o'tishiga qaramasdan o'z natijasini ko'rsatgani quvonarli holat. Bunga misol sifatida jamiyatda muallimning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlarini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va shuni rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari, bundan tashqari metodologik, pedagogik yondashuvlarning yangicha tarkibini keltirib o'tishimiz mumkin. Har qanday fan, shu jumladan pedagogika, agar u tobora ko'proq yangi faktlar bilan to'ldirilsa, rivojlanib, takommilashib boradi. O'z navbatida, ularni to'plash, izohlash, tushuntirish, ilmiy asoslangan tadqiqotlar zarur bo'lgan nazariy printsiplar to'plamiga bog'liqdir va bularning yig'indisiga metodologiya deyiladi. Metodologiya komponentlarni tavsiflaydi ilmiy tadqiqotlar uning ob'ekti, tahlil predmeti, tadqiqot vazifalari, ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan tadqiqot vositalarining yig'indisi, shuningdek, tadqiqot vazifalarini hal qilish jarayonida tadqiqotchining harakatlari ketma-ketligi to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Metodologiya uslubiy printsiplarda mujassamlangandir. Bugungi kunda pedagogika sohasida qo'llanilayotgan metodologik yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv
- Individual-subyektiv yondashuv
- Differensial yondashuv
- Faoliyatli yondashuv
- Inklyuziv yondashuv
- Innovatsion yondashuv
- Aksiologik yondashuv
- Madaniy yondashuv

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida maktab oldida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, ta'lim o'quvchilarning ma'naviy, intellektual, ijodiy rivojlanishini ta'minlashi kerak. Zamonaviy maktab nafaqat turli qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarni o'qitishni, balki sinfda bolaning shaxsiyatining qadr-qimmatini tasdiqlovchi o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim modeliga qaratilgan ijodiy muhitni yaratishga qaratilgan. Bu haqida psixologiya fanlari doktori, Xalqaro pedagoglar akademiyasining a'zosi, mashhur pedadog olimi Iraida Sergeyevna Yakimanskaya quyidagicha fikr bildirgan: "Maktab - bu har bir bola o'zini noyob, betakror shaxs sifatida namoyon qilishi kerak bo'lgan ijtimoiy muassasadir."

Natija va muhokama. O'zining pedagogik faoliyati davomida ushbu metodologik yondashuvdan foydalagan har bir o'qituvchi uning nafaqat o'quvchilari uchun, balki o'zi uchun ham bir qancha qulayliklar va imkoniyatlar yuzaga kelayotganini his etadi. Jumladan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan darsdagi faoliyati:

- Dars davomida barcha o'quvchilarning ishiga ijobiy hissiy kayfiyatni yaratish
- Muammoli ijodiy topshiriqlardan foydalanish
- O'quvchilarni vazifalarni bajarishning turli usullarini tanlash va mustaqil ravishda ishlatishga undash kabi qator ijobiy natijalarga erishishda yordam beradi. Guvohi bo'lganimizdek, har bir metodologiya, har bir yondashuvning zahirida kelajak avlodni har





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tomonlama shakllangan, yetuk, komil shaxs sifatida o'sib ulg'ayishiga zamin yaratish, ularni hayotda, jamiyatda o'z o'rinlarini topa oladigan, malakali mutaxxasislar sifatida yetishtirishdek sharaflil va bir vaqtning o'zida mas'uliyatli vazifa, maqsadlar yuklatilgan. Bunda albatta, o'qituvchi, pedagoglarimizdan kasbiy mahorat, rivojlanish, o'z ustida tinimsiz ishlash va kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishga qaratilgan harakatlarini to'xtatmasliklari talab etadi. Boshlang'ich sinflarda "Pedagogik ustaxona" texnologiyasi har bir bolaning ijodiy qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Ushbu texnika har bir talabaning rivojlanishi va takomillashishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Bolaning o'zini o'zi anglashi uchun o'qituvchi unga "menejer" bo'lish imkoniyatini beradi. Dars boshida maktab o'quvchilarining faoliyat uchun o'zini o'zi belgilashi tashkil etiladi. Yangi tashkil etilgan "rahbarlar" o'qituvchiga dars maqsadini shakllantirish, uning vazifalari ustida o'ylash, optimal faoliyat algoritmini tanlashda yordam beradi. O'z taqdirini o'zi belgilashning asosiy talabi - bu bolaning individual qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos keladigan moslashuvchan ramkalar yaratish qobiliyati. Boshlang'ich sinflarda pedagogik texnologiyalarni xarakterlash dolzarb va o'z vaqtida amalga oshirilayotgan jarayondir, chunki hozirgi vaqtda mahalliy maktab ta'limida pedagogik jarayonning barcha jabhalarini qamrab olgan global o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ularning muvaffaqiyatga erishishi uchun o'qituvchilarda ta'lim va tarbiyaning innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirib, kasbiy mahoratini oshirishga intilishi zarur. Pedagogik texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiradigan, kerakli natijaga erishadigan ta'lim usullari, usullari va shakllari majmuasidan foydalanishga asoslangan ta'lim faoliyatini loyihalash. Bu mahoratdan pedagogik texnologiya, o'qituvchining fikrlash jarayoni boshlanishi kerak: foydalaniladigan tilning izchilligi, dolzarbligi, ravshanligi.

Xulosa.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar bugungi kunda ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, boshlang'ich ta'limda ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ularning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ta'lim jarayonini samarador qilishga xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish davrida ta'lim berish usullarini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalardan samarali foydalanish har bir pedagog oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning yana bir muhim jihati – ta'lim jarayoniga ijtimoiy-psixologik yondashuvni tatbiq etishdir. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar psixologik rivojlanishning eng muhim bosqichlaridan birida bo'ladi. Shu sababli pedagoglar bolaning emotsional holatini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini tashkil etishlari zarur. Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlantirib aytganda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar boshlang'ich ta'limni yanada sifatli va samarali qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ular o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, ularni mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuvlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

esa pedagoglarning doimiy o'z ustida ishlashi, ilmiy-tadqiqot yondashuvlarini qo'llashi va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishiga bog'liq. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning dolzarbligi ularning kelajak avlodni tarbiyalashdagi strategik o'rni bilan belgilanadi. Shu sababli ta'lim tizimidagi barcha islohotlar va innovatsiyalar mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
4. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
5. Pedagogika o'qitish metodikasi Pedagogika o'qitish metodikasi Ko'rganlar, jami: 12905 Janr/bo'lim: Pedagogika, Darsliklar, Fan va ta'lim Muallif: O'tkir Yo'ldoshev
6. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

